

QISHLOQ XO'JALIGISOHANI MOLIYAVIY QO'LLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY MOHIYATI

Mittilayev Ibrohimjon

Iqtisodiyot va qurilish instituti asissenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Qishloq xo'jaligisohani moliyaviy qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mohiyati haqida fikr yuritgan. Jumladan, Qishloq xo'jaligisohani moliyalashtirishda bo'yicha iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish borasida kabi masalalar ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Qishloq xo'jaligi, mahsulot, korxonalar, doimiy, shakllanish, daraja, muhimlik, investitsiya, faoliyat, tizim, ro'l, tarmoq, tabiiylik, rivojlanish, soliq.

Ключевое слово. Сельское хозяйство, продукт, предприятие, постоянное, образование, уровень, значение, инвестиции, деятельность, система, роль, сеть, природа, развитие, налог.

Key words. Agriculture, product, enterprise, permanent, formation, level, importance, investment, activity, system, role, network, nature, development, tax.

Qishloq xo'jaligisohaning dolzarb muammolardan biri qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini moliyalashtirish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidadir. Qishloq xo'jaligisoha korxonalarining moliyaviy resurslarini shakllantirish davlatning umumiy strategiyasining doimiy ajralmas qismi bo'lib xisoblanadi. Qishloq xo'jaligisoha korxonalarining investitsiya faoliyatida o'zi-o'zini moliyalashtirishning ma'lum darajasini shakllantirishdan, shuningdek, investitsiyalarni izlash va jalb qilish roli juda muhim xisoblanadi. Bizga ma'lumki, ushbu sohani rivojlanishi va tarmoqda mahsulot yetishtirish tabiiy-iqlim muhitiga bilan bog'liqdir. Bu soha shu kabi bir qancha muammolar sababli, sohani davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalash, imtiyozli kreditlar va boshqa shaklida faol moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarurligi bilan asoslanadi.

Qishloq xo'jaligisohani moliyalashtirishda bo'yicha iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish borasida xorij iqtisodchi olimlar tomonidan turli nazariy fikrlar bildirilgan. Jumladan, A.S.Dolgova fikricha, qishloq xo'jaligisoha mahsulot yetishtiruvchilarning moliyalashtirish bilan bog'liq barcha muammolarni mustaqil yechimini topish imkoniyatlari mavjud emas, shu sababli xorij tajribasiga asosan aksariyat g'arb mamlakatlaridagi qishloq xo'jaligisohasining muhim qismi bo'lib davlatning byudjeti mablag'lari asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hisoblanadi. Qishloq xo'jaligisohani xukumat orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'z ichiga subsidiyalash, imtiyozli soliq, bojxona, kredit va boshqa moliyalashtirish manbalarini qamrab oladi. Buning natijasida qishloq xo'jaligisoha

mahsulot yetishtiruvchilarning moliyaviy barqarorligiga erishish mumkin. Moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribani umumlashtirish asosida qishloq xo'jaligisohani kreditlash uchun ushbu sohani eng istiqbolli loyixalarni aniqlash kerak. SHuningdek iqtisodchi YU.K.Korolev xulosasiga ko'ra, qishloq xo'jaligisektorni moliyaviy manbalari bilan ta'minlashda imtiyozli kredit resurslaridan to'liq foydalanishda davlat tomonidan tartibga solishni hisobga olish, o'rtachadan past va yuqori darajadagi to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash bilan subsidiyalangan kreditlash maqsadli oluvchilarni qamrab olish darajasiga e'tibor berish kerak. Kreditni qo'llab-quvvatlashga ob'ektiv ehtiyojini qishloq xo'jaligi bir qancha sabablarga bog'liq bo'lib, ularning asosiylari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining xususiyatlaridan kelib chiqadi deb xisoblaydi. Ko'pincha qishloq xo'jaligisoha kopxonalapining moliyaviy holati bapqapop emacligi, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarishni imkoniyati cheklanib qolishi sababli qishloq xo'jaligisoha kopxonalapining banklapdan moliyaviy xizmatlapidan foydalanish dapajacini oshipishga to'cinqinlik qilmoqda.

SHu sababli iqtisodchi olim V.V.Maslova ta'kidlashicha, qishloq xo'jaligisohada moliyaviy salohiyat ko'pincha turli omillar ta'sirida shakllanadi. YA'ni mintaqa xududlari qay tarzda hukumat orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyati yetarliligi, iqtisodiy, moliyaviy kabi qonunchiligi va mamlakat investitsiya faoliyatini belgilab beradigan ko'plab shu kabi omillar ta'siri bilan izohlanadi. YU.V.Trushin fikriga ko'ra qishloq xo'jaligisohada moliyaviy jozibadorlikni oshirishda hukumat orqali qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlaridan foydalanish, shuningdek soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlarni qo'llash zarur deb hisoblaydi. Bizning fikrimizcha qishloq xo'jaligisoha kopxonalapini hukumat orqali qo'llab-quvvatlash samaradorligida davlat byudjeti mablag'larini yaqindan moliyaviy yordamining roli katta va uni taqdim etish shakli bilan bog'liqdir.

Bu borada R.R.YUnyaeva o'z ilmiy izlanishlarida qishloq xo'jaligisohadagi korxonalarini moliyaviy rag'batlantirish, ya'ni imtiyozli uzoq muddatli kreditlar bilan qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligisohani imtiyozli uzoq muddatli kreditlashni rag'batlantirishning kompleks mexanizmini yaratish qishloq xo'jaligi faoliyatida eng muhim zamonaviy mexanizmi xisoblanadi¹¹.

A.N.Antipenko xulocaciga ko'pa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar faoliyatini moliyalashtirishda kreditlar muhim manbaga aylanmoqda. Qishloq xo'jaligisohani kreditlashning o'ziga xos jihati ishlab chiqarishni mavsumiyliigi bilan bog'liqdir. Hozirgi vaqtda tijorat banklari qishloq xo'jalik korxonalarini kreditlashdan uncha manfaatdor emas, chunki ishlab chiqarishning o'zini qoplash darajasi pastligi va mulkni garov bilan ta'minlash imkoniyati yo'qligidir. Bu esa o'z navbatida, makroiqtisodiy nobarqaror o'zgarishlar sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari faoliyatiga sezilarli ta'sir

ko'rsatadi va moliyaviy resurslarni cheklanligi ishlab chiqarish samaradorligini pasayishiga olib keladi. Qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyatini rivojlantirish va barqarorligini ta'minlashda bank kredit tizimini takomillashtirish zarurdir.

G.P.Zaxarova o'z ilmiy ishlarida agrosanoat kompleksining bevosita yoki bilvosita moliyaviy qo'llab-quvvatlash hozirda dunyoning barcha mamlakatlarda jiddiy e'tibor beriladigan tarmoq xisoblanadi. Rossiyada kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini subsidiyalash mexanizmi hukumat orqali tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash resurslaridagi ulushi taxminan 80% ni tashkil etgan holda rag'batlantirishning asosiy mexanizmiga aylangan. Banklar tomonidan qishloq xo'jaligimahsulot yetishtiruvchilar, qayta ishlovchilar va realizatsiya qiluvchilar 5% dan oshmagan miqdorda qisqa muddatli va investitsion kreditlar olish huquqlariga ega bo'lib, kredit tashkilotini yo'qotilgan daromadini to'g'ridan-to'g'ri federal byudjetdan markaziy bank asosiy foiz stavkasi miqdorida qoplanishi mumkin.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 noyabrdagi «Paxta xom ashyosini yetishtirish va uning yig'im-terim xarajatlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2-sonli qarori.
3. R.R.Yunyaeva. Gosudarstvennoye regulirovaniye sistema kreditovaniya v sel'skom xozyaystve: teoriya, metodologiya i praktika: aftoreferat diss. na uch step. d.e.n. - M.: Moskva – 2010. 47s.
4. A.N. Antipenko. Sovershenstvovaniye sistema analiza finansovoy ustoychivosti organizatsiy v usloviyax innovatsionnogo razvitiya agropromyshlennogo kompleksa Respubliki Belarus: aftoreferat diss. na uch step. k.e.n. - M.: Minsk-2015. 28 s.
5. YUsupov M.S. Jahon amaliyotida qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. –T.: IQTISODIYOT, 2017. – 282 b
6. Umurzokov.U.P. Povysheniye effektivnosti ispolzovaniya resursnogo potentsiala agrarnogo sektora ekonomiki Uzbekistana-T: Izd-vo «FanANRUz», 2005. - 211 s.